



PRESS-RELIZ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEKSINING 483-MODDASIGA QO'SHIMCHA KIRITISH TO'G'RISIDA

O'RQ-857, 18.07.2023 y.

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi soliqlardan ozod etildi

Soliq kodeksining 483-moddasiga qo'shimcha kiritildi.

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo'linmalari, "O'zbekiston Professional futbol ligasi" jamoat birlashmasi, O'zbekiston futbol hakamlari markazi, Professional futbol klublari:

- barcha turdag'i soliqlardan (ijtimoiy soliq tashqari);
- o'zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilari daromadidan to'lanadigan JShODSdan;
- O'zbekistonga olib kiriladigan, O'zbekistonda o'xshashi ishlab chiqarilmaydigan
 - sport asbob-uskunalarini va inventari,
 - translyatsiya qilish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar,
 - inventar va texnika,
 - farmakologiya tovarlari,
 - sport oziq-ovqatlari,
 - futbol (futzal) maydonlari uchun sun'iy o'tlar,
 - shokpad,
 - granulalar,
 - maxsus yelimlar va maxsus professional sport kiyim-boshlari,
 - transport vositalari, shu jumladan maxsus transport vositalari uchun QQSdan ozod etiladi.

Qonun rasmiy e'lon qilindan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Soliq nazorati departamenti

Toshkent -2023